

EVFEMIZMLARDA KUZATILADIGAN SEMANTIK JARAYONLAR

Aliyeva Nargiza Nodirovna,
Qo'qon Davlat Universiteti
Xorijiy Metodika kafedrası dotsenti
G-mail: aliyevanargiza411@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada evfemizmlarda kuzatiladigan semantik jarayonlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda evfemizmlarning yuzaga kelishida ishtirok etuvchi ma'no ko'chish turlari, jumladan, metafora, metonimiya, perifraza kabi usullar o'rganiladi. Shuningdek, tildagi madaniy, ijtimoiy va psixologik omillarning evfemizmlar shakllanishiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari evfemizmlarning til va nutqdagi ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: evfemizm, semantik jarayon, metafora, metonimiya, perifraza, ma'no ko'chishi, til, nutq.

Аннотация. В данной статье анализируются семантические процессы, наблюдаемые в эвфемизмах. Особое внимание уделяется видам семантического переноса, таким как метафора, метонимия и перифраза, участвующим в формировании эвфемизмов. Также рассматривается влияние культурных, социальных и психологических факторов на возникновение эвфемизмов. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию роли эвфемизмов в языке и речи.

Ключевые слова: эвфемизм, семантические процессы, метафора, метонимия, перифраза, семантический перенос, язык, речь.

Annotation. This article analyzes semantic processes observed in euphemisms. Particular attention is given to types of semantic shift such as metaphor, metonymy, and periphrasis involved in the formation of euphemisms. The study also examines the influence of cultural, social, and psychological factors on the emergence of euphemisms. The findings contribute to a deeper understanding of the role of euphemisms in language and speech.

Keywords: euphemism, semantic processes, metaphor, metonymy, periphrasis, semantic shift, language, speech.

Kirish. Tilning leksik tizimi doimiy o'zgarish, rivojlanish va yangilanish jarayonida bo'ladi. Bu jarayonlarning eng muhimlaridan biri-semantik o'zgarish, ya'ni so'z ma'nosining vaqt o'tishi bilan kengayishi, torayishi, yoqimli yoki betaraf tus olishidir. Mazkur jarayon evfemizmlar tizimida alohida ahamiyatga ega. Chunki evfemizmlar inson ongidagi tabu, axloqiy me'yor va madaniy qadriyatlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan semantik hodisalardir.[1]

Evfemizmlar orqali inson o'z fikrini yumshoqroq, ijobiyroq yoki ijtimoiy jihatdan maqbul shaklda ifodalaydi. Shu bois ularning semantik evolyutsiyasi lingvistik hamda sotsiolingvistik jihatdan tahlil etilishi zarur.

Bugungi globallashuv va axborot almashinuvi tezlashgan davrda til jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy hamda psixologik jarayonlarni aks ettiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Insonlar o'zaro muloqot jarayonida ayrim tushunchalarni bevosita emas, balki yumshoqroq, muloyimroq yoki estetik jihatdan maqbul shaklda ifodalashga intiladilar. Ana shunday ehtiyoj natijasida evfemizmlar yuzaga keladi. Evfemizmlar jamiyatdagi axloqiy me'yorlar, diniy qarashlar, milliy qadriyatlar hamda kommunikativ

madaniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan til hodisasi. Til taraqqiyoti davomida evfemizmlar ham doimiy ravishda o'zgarib, yangi semantik xususiyatlarni kasb etadi. Ayniqsa, semantik o'zgarishlar evfemizmlarning shakllanishi va rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. So'z ma'nosining kengayishi, torayishi, metaforik yoki metonimik ko'chishi evfemistik birliklarning paydo bo'lishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan evfemizmlarni semantik nuqtayi nazardan o'rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda evfemizmlar nafaqat leksik birlik sifatida, balki kognitiv, pragmatik va sotsiolingvistik hodisa sifatida ham talqin qilinmoqda. Chunki evfemizmlar inson tafakkuri, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlari bilan uzviy bog'liqdir. Turli xalqlarda evfemizmlarning qo'llanishi ularning milliy mentaliteti va madaniy qadriyatlarini ham aks ettiradi. Ingliz va o'zbek tillaridagi evfemizmlarni qiyosiy o'rganish esa ikki tilning semantik tizimidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlash imkonini beradi.

Mazkur maqolada evfemizmlarning semantik tabiati, ularning yuzaga kelish omillari hamda ingliz va o'zbek tillarida kuzatiladigan asosiy semantik o'zgarish turlari tahlil qilinadi. Shuningdek, evfemizmlarning nutqiy kommunikatsiyadagi vazifasi va ularning madaniy-pragmatik xususiyatlari yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili. Evfemizmlarning semantik tabiati masalasi ko'plab tilshunoslardan tomonidan o'rganilgan. Masalan, D.A. Kruse, J.R. Teylor va G. Lakofflar semantik o'zgarishlarni kognitiv asosda tahlil qilib, ma'no tafakkurdagi konseptual tizimga bog'liqligini ta'kidlaydilar[2] A. Allan va K. Burrige esa evfemizmlarni jamiyatdagi "tabu" hodisalari bilan izohlab, ularni ijtimoiy psixologik ehtiyojlar natijasi sifatida ko'rsatgan.[3]

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola metodologiyasi sifatida semantik tahlil, kognitiv yondashuv va madaniyatlararo qiyoslash usullari tanlandi. Shuningdek, o'zbek va ingliz tillaridagi evfemizmlar semantik o'zgarish ko'rinishlari bo'yicha tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. Evfemizmlarda kuzatiladigan asosiy semantik jarayonlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Ma'no kengayishi (semantic broadening)

So'zning dastlabki ma'nosi umumlashadi yoki kengroq doiradagi obyektlarga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, ingliz tilidagi "pass away" ("vafot etmoq") ifodasi "die" so'zining semantik kengaygan evfemistik shaklidir. O'zbek tilida esa "olamdan o'tmoq" yoki "ko'z yumdi" so'zlari shunday vazifani bajaradi.

2. Ma'no torayishi (semantic narrowing)

Ayrim evfemizmlar ma'no torayishi orqali aniqlik kasb etadi. Masalan, "restroom" so'zi umumiy "dam olish joyi" ma'nosidan torayib, hojatxona uchun ishlatiladigan evfemizmgacha aylangan.[4]

3. Metaforik o'zgarish (metaphorical shift)

Ko‘plab evfemizmlar metafora asosida yuzaga keladi. Masalan, o‘zbek tilidagi “og‘ir kunlarni boshdan kechirmoq” yoki ingliz tilidagi “financially challenged” iboralari “kambag‘allik” holatini yumshoq ifodalash uchun ishlatiladi.[5]

4. Metonimik o‘zgarish (metonymic shift)

Bu jarayon bir tushunchaning boshqa yaqin tushuncha bilan almashtirilishi natijasida yuz beradi. Masalan, “the White House said...” ifodasi “AQSh hukumati bayon qildi” degan metonimik evfemizmdir.[6]

5. Litota va hiperbola asosidagi yumshatishlar

Ba’zi evfemizmlar litota (kamaytirib aytish) va hiperbola (orttirib aytish) asosida shakllanadi. Masalan, “He is not very bright” deganda “ahmoq” deyilmaydi, balki yumshoq baho beriladi.

6. Kognitiv asosdagi semantik o‘zgarishlar

Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan, evfemizmlar inson ongida ijobiy “konseptual ramkalar” orqali shakllanadi. Bu esa Lakoff va Jonsonning metaforik fikrlash nazariyasida ham isbotlangan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, evfemizmlar tilning nafaqat leksik, balki madaniy va pragmatik qatlamlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlar o‘rtasida umumiy semantic tendensiyalar mavjud bo‘lsa-da, ularning qo‘llanishida milliy mentalitet va madaniy qadriyatlarning ta’siri sezilarli darajada namoyon bo‘ladi.

7. Perifraz (periphrasis)

Perifraz evfemizmlarning eng keng tarqalgan shakllaridan biridir. Bunda bir so‘z o‘rniga kengroq tavsiflovchi ifoda qo‘llanadi. Masalan, “disabled” o‘rniga “people with special needs” birligi ishlatiladi. O‘zbek tilida esa “nogiron” o‘rniga “imkoniyati cheklangan shaxs” ifodasi qo‘llanilishi bunga misol bo‘ladi. Perifraz ijtimoiy jihatdan nozik mavzularni yumshoqroq ifodalash imkonini beradi.

Xulosa. Evfemizmlar semantik jihatdan o‘zgaruvchan, dinamik birliklardir. Ularning ma’no jarayonlari tildagi madaniy qadriyatlar, ijtimoiy tabular va psixologik ehtiyojlar bilan chambarchas bog‘liq. Evfemizmlarda kuzatiladigan semantik kengayish, torayish, metaforik va metonimik o‘zgarishlar til tizimining moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Shu sababli, evfemizmlarning semantik jarayonlarini o‘rganish — nafaqat lingvistik, balki kognitiv va sotsiolingvistik tadqiqotlar uchun ham muhim yo‘nalishdir.

Evfemizmlar tilning dinamik va ijtimoiy jihatdan faol qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ularning shakllanishi va rivojlanishida semantik o‘zgarishlar muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot davomida ma’no kengayishi, ma’no torayishi, metaforik va metonimik ko‘chish, perifraz kabi semantik jarayonlar evfemizmlarning asosiy shakllanish mexanizmlari ekanligi aniqlandi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlar insonning axloqiy me’yorlari, madaniy qadriyatlari va kommunikativ ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liqligi kuzatildi. Evfemizmlar jamiyatdagi nozik mavzularni yumshoqroq va maqbul shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Shu bois ularni semantik, pragmatik va kognitiv jihatdan

o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Kelgusida evfemizmlarning diskursiv xususiyatlari, ommaviy axborot vositalaridagi qo'llanishi hamda turli madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o'rni yuzasidan yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Allan, K. & Burridge, K. (1991). Euphemism and Dysphemism, P.14.
2. Cruse, D.A. (1986). Lexical Semantics, P.37.
3. Allan & Burridge (1991), Euphemism and Dysphemism P.22.
4. Croft, W. Radical Construction Grammar (2000), P.45.
5. Lakoff & Johnson Metaphors We Live By, (1980), P.52.
6. Taylor, J.R. Linguistic Categorization, p.61 (2003), P.61.

